



O‘QUVCHILARNING TIL O‘RGANISHDAGI PSIXOLOGIK TO‘SIQLARINI YENGISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA AMALIY TAKLIFLAR

Erkinova Nodira Sobirjon qizi

Namangan viloyati Yangi Namangan tumani 83-maktab, ingliz tili o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘quvchilarning ingliz tili o‘rganish jarayonida duch keladigan psixologik to‘siqlari, ularni yengishning samarali yo‘llari hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarning bu jarayondagi o‘rni tahlil qilinadi. Maktabda 2025-yil Tashabbusli Open Budjetda yutib olib o‘rnatilgan elektron doskalarining ta‘lim jarayoniga ta‘siri, sun‘iy intellekt texnologiyalarining psixologik yengillik yaratishdagi ahamiyati va muallifning shaxsiy pedagogik tajribasi asosida ilmiy xulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Til o‘rganish, psixologik to‘siqlar, motivatsiya, sun‘iy intellekt, elektron doska, innovatsion metodlar, Think-Pair-Share, role-play, AI chatbot, ishonch, muloqot ko‘nikmalari.*

KIRISH

Bugungi globallashtirish jarayonida ingliz tilini o‘rganish har bir yosh uchun zarur ehtiyojga aylangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning:

“Yoshlarimiz kamida uchta xorijiy tilni mukammal bilishi uchun sharoit yaratish — davlatimizning ustuvor vazifalaridandir”

degan fikri ta‘lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitish masalasiga yuksak e‘tibor qaratilayotganining yorqin dalilidir.

Shunga qaramay, o‘quvchilarning aksariyati til o‘rganishda psixologik to‘siqlarga duch keladi: xato qilishdan qo‘rqish, o‘z fikrini ochiq aytolmaslik, sinfdoshlar oldida gapirishdan tortinish, o‘ziga ishonchsizlik kabi holatlar bunga misoldir. “The Times Educational Review” jurnalida qayd etilganidek:

“Language anxiety is one of the strongest predictors of poor performance in foreign language classrooms.”

Shu bois til o‘qituvchilari nafaqat bilim beruvchi, balki psixologik qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lishi ham talab etiladi.

ASOSIY QISM

1. Psixologik to‘siqlarning asosiy sabablari

O‘quvchilarning til o‘rganish jarayonidagi psixologik to‘siqlari quyidagi omillar bilan bog‘liq:

- Xato qilishdan qo‘rquv,
- Jamoadan uyalish,
- Nutqiy bosimni his qilish,
- Past motivatsiya,
- O‘qituvchining dars uslubiga moslasha olmaslik,
- Tengdoshlar orasida raqobat kuchliligi,



Til o‘rganish — yuqori darajada ijtimoiy jarayon bo‘lgani uchun psixologik faktorlar uning muvaffaqiyatiga bevosita ta‘sir qiladi.

2. Innovatsion texnologiyalar va psixologik to‘siqlarni kamaytirish

2025-yilda maktabimizga o‘rnatilgan elektron doskalar ta‘lim sifatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Vizual materiallardan foydalanish, videolar orqali listening mashqlari, interfaol testlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirdi, psixologik bosimni kamaytirdi.

Sun‘iy intellektdan foydalanish ham muhim rol o‘ynadi. Zamonaviy gazeta va jurnal maqolalarida ta‘kidlanganidek:

“AI is becoming a confidence-building tool for language learners, offering a safe space to practice without judgment.”

Amaliyotimda shuni ko‘rdimki : AI yordamida o‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmaydi, talaffuz va grammatikani mustaqil to‘g‘rilaydi va eng asosiysi AI uning xatosini ko‘rsatadi lekin ruhiy bosim qilmaydi. Bu jarayon o‘quvchida:

-mustaqillik,

-o‘ziga ishonch,

-tinch o‘rganish muhiti

shakllanishiga xizmat qiladi. Bir chet tili o‘rganayotgan o‘quvchim aytgan edi : “AL bilan gaplashsam ,xato qilsam ham uyalmasdan davom etaveraman”. Bu esa speakingdagi psixologik to‘siqni sezilarli darajada kamaytiradi deb o‘ylayman.

3. Dars jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion metodlar

Ingliz tili o‘qituvchisi sifatida men quyidagi metodlarni eng samarali deb bilaman:

Think-Pair-Share

O‘quvchi avval mustaqil o‘ylaydi, so‘ng juftlikda fikr almashadi, keyin sinfga taqdim etadi. Bu bosqichma-bosqich jarayon psixologik bosimni kamaytiradi.

Role-play

O‘quvchi rolga kirib gapiradi, bundan kelib chiqib u o‘zini "boshqa shaxs" sifatida his qiladi va psixologik to‘siq yo‘qoladi.

Peer Teaching

O‘quvchilar bir-biriga dars tushuntiradi. Bu usul ishonchni oshiradi.

AI Chatbot bilan muloqot

O‘quvchi real hayotdagi suhbatni takrorlash imkoniga ega bo‘ladi, lekin tanqid qilinmaydi.

Electornic Board Activities

Interfaol mashqlar, rasm asosida gapirtirish, QR kodli topshiriqlar — o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

4. Muallifning amaliy tajribasi

Dars jarayonida o‘quvchilarning individual psixologik holati, qiziqishi va qobiliyatini inobatga olish ham psixologik to‘siqlarni kamaytiradi. Men quyidagi tajribalarni eng samarali deb bilaman:

-“Xatolar — muvaffaqiyat sari qadam” tamoyilini muntazam qo‘llash,

-O‘quvchilarga kichik, bosqichma-bosqich maqsadlar qo‘yish,

- Darsda rag‘batlantirish tizimidan foydalanish,
- Muloqotga asoslangan darslarni ko‘paytirish,
- AI yordamida shaxsiylashtirilgan mashqlar berish,

Shu orqali o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi oshdi, nutqiy to‘siqlar kamaydi va dars jarayoni yanada faol bo‘ldi.

XULOSA

O‘quvchilarning psixologik to‘siqlarini yengish — til o‘rgatish jarayonining eng muhim bosqichidir. O‘qituvchi pedagogik mahorat bilan birga psixologik yondashuvni ham qo‘llashi lozim. Innovatsion metodlar, elektron doskalar, sun‘iy intellekt texnologiyalari va shaxsiylashtirilgan yondashuv o‘quvchilarda:

- ishonch,
- qiziqish,
- erkin muloqot qilish

ko‘nikmasi shakllanishiga yordam beradi. Psixologik to‘siqsiz o‘quvchi esa chet tilini tezroq va samaraliroq egallaydi. Tajribamdan shuni ayta olamanki ,elektron doskalar va sun‘iy intellekt texnologiyalarini dars jarayonimga joriy etish o‘quvchilarimda sezilarli darajada ijobiy o‘zgarishlar yasadi, o‘tayotgan darslarim saviyasi ancha balandroq va o‘quvchilarning darsga qiziqishi ancha yuqoriroq bo‘ldi chunki chekka qishloqlardagi o‘quvchilarning 70 % hunarga ,pul topishga qiziqib afsuski bilim olmay qo‘yishgani achinarli holat edi va bunday innovatsion texnika kelishi esa ularni ozmi ko‘pmi o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirdi desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Men chet tili o‘qituvchisi sifatida bugungi ta‘lim jarayonida texnologiya va bilim olish psixologik to‘siqlarni kamaytirishning eng samarali vositalaridan biri deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. — O‘zbekiston yoshlari va ta‘lim siyosati bo‘yicha nutqlari.
2. Horwitz, E. — Language Anxiety in the Classroom, TESOL Quarterly.
3. The Times Educational Review — Psychological Barriers in Language Learning, 2023.
4. Oxford University Press — Teaching English with Technology.
5. Cambridge Applied Linguistics — Motivation and Confidence in SLA.